

**BUXORO VILOYATI BUXORO  
SHAHAR 28-SONLI UMUMIY  
O‘RTA TA’LIM MAK TABI**

**Umumta’lim maktablarning  
„Boshlang‘ich sinf darslarida  
zamonaviy metodlar va  
interaktiv o‘yinlardan  
foydalanish”**

**bo‘yicha metodik qo‘llanma**

**RADJABOVA SHOIRA**

**XAMIDOVNA**

**28-sonli umumiyl o‘rta ta’lim  
mактабининг Олий тоифали  
бoshlang‘ich sinf o‘qituvchisi**

**Buxoro -2024**

# Darslarda zamonaviy metodlar va interaktiv o‘yinlardan foydalanish uslubi



## **Annotatsiya**

Mazkur metodik qo`llanmada boshlang'ich sinf darslarida interaktiv metodlar, ta'limiy interfaol o`yinlar, ulardan foydalanish uslubi, ahamiyati bat afsil yoritilgan.

Ushbu metodik qo`llanmadagi barcha metod va ta'limiy o`yinlar dars jarayonida qo`llanilib, amaliyotda sinalgan .

XXI asrning 4K moduliga(kommunikativlik,kollobaratsiya,kritik,kreativlik) asoslangan holda o`quvchilarning zamon talablariga mos ravishda bilim , ko`nikma, malakalarga ega bo`lishlariiga yordam beradi.

**Tarkib:****Tuzuvchi:**

Buxoro viloyati Buxoro shahar 28-umumta'lim maktabining Oliy toifali boshlang`ich sinf o`qituvchisi Radjabova Shiora Xamidovna

**Taqrizchilar:**

Buxoro viloyati Buxoro shahar 28-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi G`ulomova Hilola Shavkatovna

Buxoro viloyati Buxoro shahar 28-umumta'lim maktabining boshlang`ich sinf o`qituvchisi Jumayeva Saodat Behbudovna

# Mundarija:

## I.Kirish

Boshlang`ich ta’lim sohasining maqsad va vazifalari	6-bet
Darslarda o`quvchilar faolligini oshirish--- davr talabi	7-8-bet
<b>II.Asosiy qism</b>	
Darslarda interfaol metodlardan foydalanish	9-10-bet
Fikrlashning 6 xil usuli „Olti shlyapa” metodi	11-13-bet
„Olti shlyapa” metodini darslarda qo`llash	13-18-bet
„Grafik test” metodi	19-21-bet
„Kodli jadval” metodi	22-bet
„Xatosini top” metodi	23-24-bet
Darslarda interaktiv ta’limiy o`yinlarni tashkil etish	25-26-bet
„Rasmlı rebus” didaktik o`yin	27-bet
„Matn tuz” didaktik o`yin	28-bet
„Qofiyadosh so`zlarni top” ta’limiy o`yin	29-bet
„Osh pishiramiz” ta’limiy o`yin	30-31-bet
„Ipak qurti” metodi	32-33-bet
„Mosini top” ta’limiy o`yin	34-35-bet
<b>III.Xulosa</b>	
Foydalanilgan adabiyotlar	36-bet
	37-bet

## Kirish

**Men barcha ushbu bilimlar bilan tug`ilgan  
emasman. Menga donolik yoqadi va men uni  
hamma joyda izlayman.**

**KONFUTSIY**

### **Boshlang`ich ta`lim sohasining maqsad va vazifalari**

**Boshlang`ich ta`lim** o`qish, yozish, sanash, o`quv faoliyatining asosiy malaka va ko`nikmalari, ijodiy fikrlash, o`zini - o`zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shuningdek gigiena va sog`lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishini ta`minlaydi, hamda boshlang`ich sinflarda o`quvchilarining umummadaniy va axloqiy ko`nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantiriladi.

#### **Tarbiyaviy maqsadi:**

Boshlang`ich ta`lim jarayonida bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, o`z-o`zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismoniy sog`lom bo`lishga, moddiy borliq go`zalliklarini his eta olishga, go`zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o`zida singdirish, ularga rioya qilishga o`rgatiladi.

#### **Rivojlantiruvchi maqsad:**

Boshlang`ich ta`lim DTS dasturida boshlang`ich ta`limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirish, erkin fikrlay olishi, o`zgalar fikrini anglash o`z fikrini og`zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a`zolari bilan erkin muloqotda bo`la olish ko`nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Boshlangich ta`lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olishi salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarshi, kommunikativ savodxonligi va o`z- o`zini anglash salohiyatini shakllantirishga jismonan sog`lom bo`lishga moddiy borliq go`zalliklarni his eta olishga, g o`zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o`zida singdirish va ardoqqash, ularga rioya qilishga o`rgatadi.

Boshlangich ta`lim bosqichi oldiga qo`yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta`lim standarti orqali amalga oshiriladi. Ta`lim standarti asosida davlat boshlang`ich sinf o`quvchilaridan standartda belgilab qo`yilgan ko`rsatkichlarga erishishni talab qiladi va o`z navbatida bu ko`rsatkichlarga erishish uchun zarur bo`lgan ta`limiy xizmatlar va vositalar bilan ta`minlaydi.

Ta`limning bugungi vazifasi o`quvchilarini kun sayin ortib borayotgan axborot — ta`lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko`rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo`llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o`rgatishdan iborat. Shu maqsadda, o`quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishslash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda 4 K moduli asosida ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o`rgatish zarur. Mana shunday ko`rsatkichlarga erishish uchun darslarda va

darsdan tashqari mashg`ulotlarda zamonaviy metodlar va interaktiv o`yinlardan foydalanish dolzarb masalaga aylandi.

### **Darslarda o`quvchilar faolligini oshirish -davr talabi.**

**Mamlakatimizda** ma`nan yetuk , ruhan sog`lom, uyg`un kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlар bazasini yaratishga erishildi. "Maktab ta`limini rivojlantirish Milliy dasturi"ning qabul qilinishi , "Dars-muqaddas", "O`rgan –o`rgat" tadbirlarining tashkil etilishi ,zamonaviy darsliklar va ularning ijrosi buning yo`rquin dalilidir. Milliy o`quv dasturi asosida yaratilayotgan yangi darsliklar – davr talabi! Boisi, jadal sur`atda rivojlanib borayotgan zamon bilan hamnafas yashar ekanmiz, biz ham yuksak maqsad bilan katta rejalar tuzishimiz va bu rejalar sari intilishimiz zarur. Buning uchun xalqaro maydonlarda raqobatbardosh bo`la oladigan yoshlarni shakllantirishimiz, ularni ma`naviy olamini zamonaviy bilimlar bilan sug`orishimiz shart! Ayni shu maqsadlarni amalga oshirishda yangi darsliklar yetakchi vazifani bajaradi. Milliy o`quv dasturining maqsadi va mazmuni shu qadar aniq belgilanganki, amaliyatga joriy etilgan darsliklar orqali biz yoshlarga keng qamrovli bilim berishga, ularni xalqaro talablarga mos ravishda shakllantirish va tarbiyalashga erishmoqdamiz. Milliy o`quv dasturidagi darsliklar avvalgi darsliklarimizdan tubdan farq qilib, tanlab olingan bo`limlar, mavzular, topshiriqlar, savol va audiomatnlar mazmuni xalqaro talablarga mos darajada ekanligini ifodalaydi. Ta`limning barcha bosqichlarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, undan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berish darkor. Interfaol metodlarni qo`llash o`quvchilarda har tamonlama ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallah, bilim va ko`nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosida o`quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini tarkib toptirish hamda kompetensiyaviy yondashuvni singdirish ,o`qituvchi –o`quvchi hamkorligini yo`lga qo`yish va nihoyat kafolatlangan yakuniy natijaga erishishishni ta`minlaydi. XXI asrning yetuk, intellektual salohiyatli fuqarosini tarbiyalash XXI asr o`qituvchisi oldiga talay vazifalarni qo`ydi. Ta`lim –tarbiya tizimini yanada yaxshilash, takomillashtirishga qulay shart- sharoitlar yaratildi .Bu borada men ham o`z oldimga qator vazifalarni qo`yganman. Ta`lim jarayonida DTSda belgilangan talablarni bajarish bilan birga o`quvchilarni erkin fikrlashga o`rgataman, o`quvchilarning qiziqishlari, psiko-fiziologik xususiyatlarini alohida e`tiborga olaman. Har bir o`quvchiga individual yondashishga harakat qilaman. Qarshimda kelajakning buyuk insoni o`tiribdi, degan mushohada doimo xayolimda gavdalanadi. O`quvchilarning barcha fanlardan olgan bilim , ko`nikma va malakalari turli sinovlar : nazorat ishlari, savol-javob, amaliy vazifa, loyiha va test sinovi asosida nazoratdan o`tkaziladi. Natijada o`quvchilarning bu fanlarni qay darajada o`zlashtirayotgani , ularning bilim samaradorligi va ta`lim sifati aniqlanadi. Shu bilan birga o`quvchilar tomonidan yo`l qo`yilgan kamchiliklar, bo`shliqlar aniqlanadi.

O`quvchilar bilimida bo`shliqlarning paydo bo`lishiga quyidagi omillar sabab bo`lmoqda:

- oila va maktab hamkorligining to`g`ri yo`lga qo`yilmaganligi ;
- o`quvchi –yoshlarnng tashqi muhit ( yot g`oyalar, " ommaviy madaniyat ", "o`rgimchak to`ri")ga tez moslashuvi.
- o`quvchilar bilan o`qituvchining individual, tabaqalashgan faoliyatining sustligi ;
- mavzuni yoritishda interfaol usul va metodlarning noto`g`ri tanlanganligi;

- ayrim o`quvchilarning badiiy adabiyotlarni kam o`qishi natijasida og`zaki va yozma nutqining sustligi;
- ilmiy ma`lumotlarga kommunikativ yondashmaslik;
- o`qituvchining axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli foydalanmasligi;
- o`quvchilar qiziqishlarini e`tiborga olinmasligi;
- ta`lim yangiliklarini o`quv jarayoniga tadbiq etishda tajribalar yetishmasligi kabilar .

Bu kamchiliklarni yo`qotish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish esa o`qituvchidan ijodkorlikni, fidoiylikni, natijali ta`limni tashkil etishni talab etadi.Birinchi navbatda o`quvchilarning yozma va og`zaki savodxonligini o`stirish muhimdir.Quyidagi amaliy mashg`ulotlarni o`tkazish maqsadga muvofiqdir:

Xotira mashqlarini o`tkazish;

Turli misol va masalalarni bir yo`l bilan emas turli usullarda yechishni o`rgatish;

Chizmaga qarab masalaning mazmunini anglash ko`nikmasini rivojlantirish slaydlar va videodarslardan foydalanish blits test va so`rovlardan foydalanish;


Nazariya va amaliyotni bo`glash;

Hayotga bog`lash ahiq fakt va misollarni ko`rsatish;

Mustaqil misol va masala tuzish hamda uni mustaqil hal qilishga erishish;

Ayniqsa, agar pedagogik texnologiyalar asosida zamonaviy, interfaol usullar yordamida darslar tashkil etilsa, sinfdagi har bir o`quvchining puxta bilim olishi,o`z ustida ishlashiga erishilsa, olingan bilim, ko`nikma va malaka o`quvchi xotirasida uzoq vaqtgacha saqlanadi, bo`shliqlar paydo bo`lishining oldi olinadi.O`quvchilar bilimidagi bo`shliqlarni to`ldirish ishlari o`qituvchidan sabr, mahorat, kuzatuvchanlik,ijodkorlik,ishning ko`zini bilish kabi xislatlarni talab etadi .Sababi , bu jarayonda o`qituvchi o`quvchi yo`l qo`ygan xatolarni inobatga olib, to`g`ri tahlil etib, unga individual yondashishi, har bir o`quvchining zaif tomonini o`z vaqtida payqab, uning oldini olishi lozim.

Hozirgi kunda har bir darsga puxta tayyorgarlik ko`rib, darslarni yangi pedagogik texnologiya asosida yaratish, o`quvchilarning kooloborativ hamkorlikda ishlashini, kreativlik ,ijodkorlikni , kommunikativlikni hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish davr talabidir.Darslardagi interfaol metodlar , ta`limiy o`yinlar orqali o`quvchilar bilimidagi bo`shliqlarni kamaytirishga, ularning mustaqil bilim olishiga, izlanib, intlishiga, dunyoqarashlarining kengayishiga erishish mumkin.



## **Asosiy qism**

### **Darslarda interfaol metodlardan foydalanish**

Interfaol usullar yordamida ta’lim samaradorligini oshirishga e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Interfaol usullar qo’llangan mashg’ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni mustaqil tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zları chiqarishlariga qaratiladi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi.O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka sabab bo‘ladi. Ta’lim metodlarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni turlituman jadallashtiruvchi metodlar bilan boyitish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonidagi faolligini muttasil rag‘batlantirib turishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo’llashi va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undashi zarur. Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Bunda ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar o‘quvchini faol ishtiroy etishga chorlaydi, u butun jarayon davomida ishtiroy etadi.

Interfaol metod---o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo`lib,bir vaqtning o`zida ham o‘qituvchi,ham o`quvchini faollashtirishga yo`naltirilgan o`qitish metodlari majmui.

Interfaol metodlar orqali o‘quvchi shaxsida mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish imkoniyati oshadi.O‘quv jarayonining interfaol ta’lim turlariga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda hatto „ bolalar o`yini “ kabi taassurot uyg`otadi.

Bugungu kun pedagoglarining asosiy maqsadi ish faoliyatida innovatsion pedagogik texnologiyalar aasosida interaktiv metodlardan keng foydalana olishdir.Lekin bugungi kunda interaktiv metodlardan foydalanib,ham o‘qituvchi ham o‘quvchi birdek faol harakat qilayotganligini barcha umumta’lim maktablarida ham kuzatish qiyin masala.Xo`sh, ta’limda interaktiv metodidan qanday foydalanish afzal?

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay,qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchiga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.


#### **Interfaol metodlar darsda:**

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi ;

- o`qituvchi va o`quvchi ortasida o`zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o`quvchilar tomonidan o`quv predmetlar bo`yicha puxta bilimlarning egallanishining ta'minlashi;
- o`quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko`nikmalarini shakllantirishi;
- o`quvchilarning o`z imkoniyatlarini ro`yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g`oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Men ham darslarimda interfaol metodlardan foydalanib, o`quvchilarning faol bo`lishlariga, ijodiy, tanqidiy fikrlay oladigan, o`z g`oyalarini erkin bayon eta oladigan shaxslarga aylanishlariga erishdim.

## Darslarimda qo`llaniladigan interfaol metodlar



## **Fikrlashning olti xil usuli,,Olti shlyapa”metodi**

“Oltita fikrlash shlyapa” usuli 1980 yilda ingliz olimi, psixolog doktor Edvard de Bono tomonidan yaratilgan va o’zining „O`qish ko`nikmalarini rivojlantirish” asari orqali bayon etilgan. Nima uchun aynan „Olti shlyapa” deb nomlangan?

Ingliz xalqida shunday ibora bor: „Birovning shlyapasini kiymoq, o`sha kabi fikrlamoq”

Bu o`quvchining parallel fikrlash jarayonini va muammolarni bir nechta nuqtai nazaridan baholash orqali qaror qabul qilish qobiliyatini yaxshilash uchun juda samarali usul.

Men bu metodni boshlang`ich sinf o`quvchilarim o`rtasida qo`llab kelmoqdamen. Ushbu metod o`quvchiga olti xil tartibda fikrlashni o`rgatadi. Bu metod ko`pincha ona tili, o`qish savodxonligi, tarbiya, tabiiy fan darslarida yoki biror masala, muammoli vaziyatni fikrlashga qaratilib qo`llaniladi. Bu metodning o`tkazilish tartibi quyidagicha:

**Oq shlyapani** kiygan o`quvchi ma`lumotlar ramzi hisoblanadi.

Undan asar yoki mavzu, mantdan aniq faktlar va ma`lumotlarni aytish talab etiladi. Ushbu aniq faktlar asosida o`quvchi bilganlarini gapirar ekan, u to`g`ri va haqqoniy dalillarga asoslanib gapirish, fikrlash kabi ko`nikmasini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, bu shlyapa ongli qarorlar qabul qilish uchun aniq va tegishli ma`lumotlarni toplash muhimligini ta`kidlaydi. Shunday qilib, o`quvchi taxminlar yoki shaxsiy tarafkashliklarga asoslangan qarorlar qabul qilishdan qochishi mumkin. Va barcha qarorlar haqiqatga asoslanadi va ma`lumotlar bilan ta`minlanadi, bu esa muvaffaqiyatli natijalarni oshiradi.

Ushbu shlyapa kiyilganda o`quvchiga yordam berishi mumkin bo`lgan savollar:

- Menda bu vaziyat haqida qancha ma`lumot bor?
- Vaziyat haqida qanday ma`lumot talab qilishim kerak?
- Menga qanday ma`lumotlar yetishmayapti?

**Qizil shlyapani** kiygan o`quvchi emotsional holatlarni bildiradi. Oquvchi asarda, matnda qanday hissiyotlar bilan to`qnashdi, xafa yoki xursand, yoki xavotir kabi kechinmalarini boshqalar bilan ulashadi. O`quvchi qizil shlyapa kiyilganda, mayjud muammoga o`z hissiy munosabatinni bildirishi mumkin. Bu, ayniqsa, muammo o`ta murakkab yoki hissiy jihatdan yuklangan bo`lsa va yanada nozik yondashuvni talab qilganda foydali bo`lishi mumkin.

Qizil shlyapani kiyganda o`quvchiga yordam berishi mumkin bo`lgan ba`zi savollar:

- Men hozir nimani his qilyapman?
- Mening intuitsiyam(hissiyotim) bu haqda menga nima deydi?
- Menga bu holat yoqadimi yoki yoqmaydimi?

Ushbu hissiy reaktsiyalarni tan olish va o`rganish orqali o`quvchi qarorlar qanday ta`sir qilishi mumkinligini yaxshiroq tushunadi va ularni hal qilish uchun choralar ko`rishi mumkinligini fikrlaydi. Bu esa o`quvchiga yanada muvozanatli va empatik qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

**Yashil shlyapa** kiygan o`quvchi ijodiy fikrlash, yaratuvchanlik va o`zgartirish ramzi bo`lib, ushbu shlyapani kiygan o`quvchidan agar unga imkoniyat berilsa, o`qigan asarida qaysi vaziyatni yoki qahramon taqdirini qanday o`zgartirishi so`raladi. Bunda o`quvchilarning ijodiy fikrlash malakasi oshishiga xizmat qiladi. Yashil shlyapa ijodkorlikni ifodalaydi va o`quvchilarni yangi g`oyalar, innovatsiyalar va imkoniyatlar

yaratishga undaydi. Bu undan muammolarga ochiq fikr bilan yondashishni va yangi va ijodiy yechimlarni faol izlashni talab qiladi.

An'anaviy yechimlar endi samarali bo`lmaganda, o`quvchi qilishi kerak bo`lgan yagona narsa shlyapani kiyib, quyidagi savollarga javob berishdir:

- Boshqa variantlar bormi?
- Bu vaziyatda yana nima qila olaman?
- Ishlarni bajarishning ushbu yangi usulini amalga oshirishning afzalliklari nimada?
- Bu holatning ijobiy tomoni nimada?

Yashil shlyapa orqali yangi va ijodiy imkoniyatlarni ko`rib chiqish orqali o`quvchilar an'anaviy fikrlash shakllaridan chiqib ketishlari va yangi g`oyalarni yaratishlari mumkin.

**Qora shlyapani** kiygan o`quvchi tanqidiy fikrlar, zararli tomonlar, salbiy munosabatlarni aytib beradi. Ushbu qora shlyapani kiygan o`quvchi har bir vaziyat va asar voqealariga tanqidiy yondashishi kerak.

Qora shlyapa tanqidiy fikrlash va potentsial xavflar, zaif tomonlar va muammolarni aniqlash orqali salbiy natijalarni bashorat qilishga yordam beradi.

Qora shlyapa yordamida o`quvchi vaziyatni salbiy nuqtai nazardan baholashi mumkin.

Qaror jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo`lsa, bu ayniqsa foydali bo`lishi mumkin.

Shuning uchun, bu shlyapa kiyilib, o`quvchilar takomillashtirish sohalarini aniqlashlari va yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolarni hal qilishlari uchun favqulodda rejalarini ishlab chiqishlari mumkin.

Shlyapadan foydalanishda yordam beradigan ba`zi savollar:

- Qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin?
- Buni amalga oshirishda qanday qiyinchiliklar paydo bo`lishi mumkin?
- Potentsial xavflar qanday?

**Sariq shlyapani** kiygan o`quvchi asar, mavzu yoki masalaning foya va ijobiy tomonini gapiradi. Ushbu sariq shlyapani kiygan o`quvchi asardagi yoki matndagi ijobiy obrazlarning foydali tomonlarini axtarishga qaratiladi. Nafaqat ijobiy balki, salbiy obrazdagi qahramonning yaxshi taraflarini aytishga yo`naltiriladi. Bu esa o`quvchida ijobiy fikrlash texnikasini rivojlantiradi.

Oltita fikrlovchi shlyapadagi sariq shlyapa optimizm va ijobiylikni anglatadi. Bu o`quvchiga vaziyatni potentsial foya va imkoniyatlar bilan baholashga va unga ijobiy nuqtai nazar bilan yondashishga yordam beradi.

Qora shlyapa singari, bu o`quvchining qarorini sezilarli ijobiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo`lgan taqdirda juda muhimdir.

Sariqni kiyib, o`quvchi o`sish va rivojlanish sohalarini aniqlashtiradi va vaziyatning ijobiy elementlaridan foydalanish yo`llarini topishi mumkin. Bu qarorlar nafaqat yaxshi ma'lumotga ega bo`lishini, balki muvaffaqiyat va ijobiy natijalarga olib kelishini ta'minlaydi.

Eng so`nggi **moviy shlyapa** xulosalar, yechimlar, takliflar, umumlashtirish ramzi sanaladi. Bu fikrlash jarayoni samarali va foydali bo`lishini ta'minlab, suhbatni diqqat markazida va tartibli saqlashga yordam beradi.

Moviy shlyapa kiyilib, fikrlash jarayonlarini boshqarish uchun muammoni strategik nuqtai nazaridan baholashga chorlashi mumkin. Ko`p nuqtai nazar yoki g`oyalarni taqdim etish kerak bo`lganda foydali bo`ladi va o`quvchi ularni samarali tashkil etishida va ustuvorlik qilishida kerak.

Shuning uchun, ushbu shlyapa bilan o`quvchi suhbatning samarali bo`lishini va barcha fikrlarni hisobga olishini ta'minlashi mumkin. Bu tushunmovchilik yoki o`tkazib yuborilgan imkoniyatlardan qochishga yordam beradi.

Olti shlyapa metodining eng asosiy maqsadi o`quvchi ongida fikrlashning turli xil sifatlarini o`stirish sanaladi.

## „Olti shlyapa” metodini darslarda qo`llash



## O`qish savodxonligi darsida qo`llanilgan „Olti shlyapa” metodi

Sana: 20-dekabr 2023-yil

Sinf: 2-V

Dars: O`qish savodxonligi

Mavzu: Yoz qayerga berkindi? Boris Snegurenkov

### Dars maqsadi:

**Ta`limiy:** O`quvchilarni „Yoz qayerga berkindi? hikoyasi bilan tanishtirish.

O`quvchilarga yoz fasli tabiatini haqida ma'lumot berish. O`quvchilarning matnni ifodali o`qish ko`nikmalarini shakllantirish, nutqlarini o'stirish. **4 K moduli** asosida ish olib borish. **F.k.1.** o`qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi va mavzuga mos maqol va hikmatli so`zlarni topa oladi;

**Tarbiyaviy:** Yoz fasli haqidagi bilimlarini kengaytirish. o`quvchilarga yoz faslining fazilatini yetkazish, ekologik tarbiya berish, ularda tabiatga muhabbat hislarini tarbiyalash. **T.k.4.** o`zining o`quvchilik burchi va vazifalarini bilishi va unga rioya qilish;

**Rivojlantiruvchi:** o`quvchilaming mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini, lug`at ustida ishslash malakalarini rivojlantirish, yil fasllari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish. **F.k.2.** o`qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi;

**Darsning turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Darsning metodi :** aralash, ko'rgazmali. savol-javob, „Olti shlyapa”, „Sinkveyn”, „Mosini top”, „Xotira mashqi”, „Tez o`qish”, „Kichik guruhlarda ishslash” metodlar;

**Darsning jahozi:** mavzuga oid rasmlar, klaster usulidagi topshiriqlar. darslik, mavzuga oid ko`rgazmalar, didaktik va tarqatma materiallar, multimediali ilovalar, slaydlar.

### Darsning borishi:

#### I.Tashkiliy qism.

Salomlashish , davomatni aniqlash, o`quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirib nazorat qilish.

--- Bir yilda nechta fasl bor?

--- Bir yilda 4 ta fasl bor.

--- Hozir qaysi fasl?

--- Hozir qish fasli.

--- Qish fasli necha oydan iborat?

--- Qish fasli 3 oydan iborat: dekabr, yanvar, fevral

Bugungi darsimizni noan'anaviy tarzda 6 guruhga bo`linib „Olti shlyapa metodi” asosida olib boramiz.

#### Guruqlar bilan tanishtirish.

**1-guruh: „OQ SHLYAPA” (Ma'lumot berishadi)**

**2-guruh: „QIZIL SHLYAPA” ( Barcha ma'lumotlar bo'yicha hissiyotlarini aytishadi)**

**3-guruh: „YASHIL SHLYAPA” ( Ijodiy fikrlarini bayon etishadi .)**

**4-guruh: „QORA SHLYAPA”**( Tanqidiy fikrlarni bayon qiluvchilar.)

**6-guruh: „KO`K SHLYAPA”**

( Barcha fikrlarni umumlashtiruvchi, xulosa chiqaruvchilar.)

Dars davomida rag`bat sifatida o`quvchilarga olma mevalari stikerlari beriladi.Har bir guruh o`quvchilari dars oxirida mevali daraxtlarini mevaga to`ldirib g`oliblikni qo`lga kiritishadi.



## **II.O`tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Har bir guruhlarga topshiriqlar beriladi.

**1-guruh: „OQ SHLYAPA” „Mosini top” metodi asosida topshiriq**

**2-guruh: „QIZIL SHLYAPA” „Sinkveyn” metodi asosida topshiriq**

**3-guruh: „YASHIL SHLYAPA” „Topishmoqlar javobini top” metodi asosida topshiriq**

- 1.** Bola kelar, bola kelar,  
Ilk mehr ola kelar.  
Silab-siylab daraxtlarga,  
Guldan marjon taqa kelar.
- 2.** Osmon chirog'i  
Yondi-yu, o'chdi.

- 3.** Katta chelak teshildi,  
Undan ko'p suv to'kildi.
- 4.** Olti oyoqli, qizil ko'yylakda,  
Qora xollari yarashar juda.

**4-guruh: „QORA SHLYAPA”**

**5-guruh: „SARIQ SHLYAPA”**

Bu guruh o`quvchilari o`tilgan mavzu „Ko`klamjon” she`rini ifodali o`qib berishadi.

Tez o`qish metodlaridan biri „**Matnni teskari o`qish**” texnikasi asosida oqishadi.

**6-guruh: „KO`K SHLYAPA”**

Bu guruh o`quvchilari o`tilgan mavzuda o`rganilgan tez aytishlarni aytib berishadi.

Har bir guruh ishtirokchilari mevali stikerlar bilan rag`batlantiriladi.

## **III.Yangi mavzu**

Yangi mavzuga zamin yaratish maqsadida har bir guruh yoz faslini „**Olti shlyapa metodi**“ asosida ochib beradi. Guruhdagi har bir o`quvchi shlyapani boshiga kiyib o`z fikrini bayon etadi.



- Yozda havo issiq bo`ladi.
- Yoz fasli 3 oydan iborat: iyun, iyul, avgust
- Yoz faslida bolalar 3 oylik ta'tilga chiqishadi
- Yozda bolalar cho`milishga borishadi.
- Yozda tomorqalarda bobolarimiz, buvijonlarimizga yordam beramiz, ekinlarni teramiz.



- Yozda cho`milib, tanamiz chiniqadi.
- Yozda istirohat bog`lariga borib, toza havodan to`yinamiz.
- Yozda juda ko`p mevalar pishadi, ularni yeb, organizmimiz vitaminga boy bo`ladi.



- Agar imkon bo`lsa, insonlar uchun juda ko`p istirohat bog`lari yartardim, kislorodga to`yinislari uchun.
- Men yozda insonlarga yoqimli shamol estiruvchi soyabon yaratishni xohlayman.
- Elektromobil mashinalarni quyoshdan quvvat oldirishni ixtiro qilgan bo`lar edim. Chunki yozda quyoshning nuri juda ko`p.



- Yozda ko`chada ko`p yurish mumkin emas, quyoshdan chiqayotgan radiatsiyadan burnimizdan qon ketish holatlari uchrashi mumkin.
- Yozda mevalarni yuvmay yeyish natijasida qorin og`riq bo`lish mumkin.
- Yozda ko`p muzqaymoq yeyish mumkin emas, tomoq og`rishi mumkin.



- Yozda maza qilib oromgohlarda dam olamiz.
- Yozda 3 oylik ta'tilda ko`p kitob o`qishga ulguramiz.
- Yozda qovun, tarvuzlarni maza qilib yeymiz



- Quyosh kulsa soz , pishiradi yoz.
- Yozning mevasi--- qishning xazinasi
- Yozning gilami keng.

--- Demak ,bolajonlar bugun biz siz bilan „Yoz seni sog`indik” mavzusi asosida darsligimizdagи Boris Snegurenkovning „Yoz qayega berkindi?” hikoyasi bilan tanishib chiqamiz.Slayd asosida rus bolalar yozuvchisi Boris Snegurenkov haqida ma'lumot berish.Hikoya darslikdan ifodali o`qib beriladi.

**Lug`at ishi** o`tkazish.

**Darslik bilan ishlash.** O`quvchilar hikoyadan quyidagi so`zlar bilan boshlanadigan gaplarni topib o`qishadi.

**Dam olish daqiqasi.**

Har bir o`quvchiga quyidagi jadvaldan berib chiqiladi.O`quvchilar bir daqiqa ichida 1 dan 16 gacha bo`lgan raqamlarni ko`z bilan topib, birin ketin o`rinlaridan turishlari kerak.Eng birinchi bo`lib turgan 3 o`quvchi g`olib deb topiladi.



Har bir guruhlardan o`quvchilar chiqib, doskada berilgan bo`g`inlar aralashtirilgan holdagi yoz fasli haqidagi maqolni to`g`ri tuzishlari kerak.

#### IV.Mustahkamlash

**Daftar bilan ishlash.**

Daftarda berilgan klaster usulidagi gul yaproqlariga yoz fasliga mos fikrlarni yozish. Tez aytishlar o`rganildi.

Har bir guruuh yana „**6 shlyapa**“ metodi asosida darsdan olgan taasurotlari haqida fikr bildirishdi.



- Bugun darsda „Sinkveyn” tuzdik.
- Darsda maqollar o`rgandik.
- Yoz qayerga berkinganini bilib oldik.
- Lug`at o`rgandik.
- Tez aytishlar o`rgandik.



- Darsda qiziqarli o`yinlar bo`ldi.
- Darsda xursand bo`ldik.
- O`z fikrimizni erkin bayon etdik.
- Bellashdik.



- Darsda ijodiy fikrladik.
- Xotiramizni charxladik
- Yangi so`zlarni gaplarda qo`llashni o`rgandik.





--- Kitobni teskari qo`yib o`qish yoqmadni  
--- Hikoydagi qish fasli yoqmadni, chunki u badjahl, qo`pol ekan.  
--- Boshqa do`stlarimiz „Sinkveyn tuzdi, biz ham shu vazifani qilishni istadik.



--- Dars juda qiziqarli bo`ldi.  
--- Darsda hamkorlikda ishladik.  
--- Darsda juda ko`p narsalarni o`rgandik, bilimga ega bo`ldik.  
--- So`z boyligimiz oshdi.



--- Kuch birlikda.  
--- Oz-oz o`rganib dono bo`lur,  
Qatra-qatra yig`ilib daryo bo`lur.  
--- Bilagi zo`r birni yiqrar,  
Bilimi zo`r mingni.



## V. Baholash va darsni yakunlash.

O`quvchilar olgan rag`batlari asosida guruhlar mevali daraxtlarini olib doskaga chiqishdi. Mevasi ko`p bo`lgan daraxtli guruh olqishlandi va g`oliblikni qo`lga kiritdi. Hamkorlikda, individual darxtini olmaga to`ldirib, faollik ko`rsatgan o`quvchilar bilimi baholanadi.

--Aziz bolajonlar, bugungi darsimizdan hissa chiqarib shuni aytmoqchimanki, tevarak atrof muhitni, ona tabiatimizni, uning ne'matlarini asrab, avaylash har birimizning burchimizdir.

Har kim bitta daraxt eksa ,  
Olam o`rmon bo`ladi,  
Har kim bitta daraxt kessa,  
O`rmoq qurban bo`ladi.  
Hayot yo`qdir daraxtlarsiz,  
Bog' qilmoqqa hissang qo`sh!



## VI. Uyga vazifa

### „Grafik test” metodi

Grafik test metodikasi bolaning o`quv faoliyatiga individual tayyorligi haqida kerakli ma'lumotlarni beradi.Bu jarayonda o`qituvchining o`quvchiga u yoki bu o`quv ma'lumotini berish emas, balki o`quvchining mustaqil faoliyati shakllantiriladigan muhitni yaratishdan iborat.Grafik test o`quvchining o`qituvchini tinglashga,diqqatini jamlay olishga, tushuntirishlarni eslab qolishga qodir yoki qodir emasligini ko`rsatadi.

Grafik test orqali o`qituvchi bir vaqtning o`zida butun sinf bilimini tekshira olishga qodir bo`ladi.Bu turdagи metod orqali darsning o`tilgan mavzusini mustahkamlash qismida ishlash juda qulay.,,Grafik test” metodidan matematika, o`qish savodxonligi ,ona tili va boshqa barcha fan darslarida foydalanish mumkin.

Bunda o`qituvchi mavzularga mos testlarni tuzish ularda jadvalda ma'lum grafika hosil bo`lishini oldindan tayyorlab oladi.

### Darslarda „Grafik test” metodidan foydalanish uslubi

Matematika darsida ko`paytirishni o`ganish jarayonida quyidagicha grafik test tuzish mumkin.

**1-a 4x3**

	<b>9</b>	<b>12</b>	<b>21</b>	<b>16</b>	<b>32</b>
<b>1</b>					
<b>2</b>					
<b>3</b>					

**1-b 8x2**

**2-a 36:4**

**2-b 3x7**

**2-d 4x8**

**3-a 6x2**

**3-b 4x4**

„Grafik test” o`qituvchi tomonidan diktant shaklida aytib turiladi.O`quvchilar kesishgan jadval ichidagi to`g`ri javoblarni topib kataklarni bo`yashadi va grafik ko`rinish hosil qilishadi.Mana bu grafik ko`rinish Texnologiya va Matematika darslarini integratsiyalashtirilgan STEAM darsida qo`llanildi.Matematikadan o`tgan mavzu bo`yicha bilimlarni tekshirishda „Grafik test “asosida Texnologiya fanidan „Shashka taxtasini” yasash mavzusi keltirilib chiqarildi.O`quvchilar daftarlariда hosil bo`lgan grafikani slayd orqali tekshirib solishtirishadi va o`z bilimlarini baholashadi.



## Ona tili darslarida „Grafik test” dan foydalanish uslubi.

Yangi mavzuni mustahkamlash qismida, yoki o`tilgan mavzuni so`rashda frontal bilimni tekshirishda foydalaniladi.

### „Grafik test”

O`quvchilarning qo`llarida grafik test jadvallari bor. Ular o`qituvchi o`qigan har bir savolni to`g`rilab belgilab boradilar. Oxirida qaysi o`quvchilarga grafika to`g`ri chiqsa, o`sha o`quvchi rag`bat kartochkasi bilan rag`batlantiriladi.

	<b>—</b>	Undalmaning har ikkala tomonidan(,) qo`yilasi	-ning	-dor	Fikrning kimga qarata aytilishi	Undalmadan keyin(,) qo`yiladi.	<b>—</b>	-la	-dosh
1									
2 a b									
3 a b									

- 1.Undalma deb nimaga aytildi?
2. a) Undalma gapning boshida kelsa, vergul qanday qo`yiladi?
  - b) Sifat yasovchi qo`shimcha.
3. a) So`z o`zgartuvchi qo`shimcha qaysi?
  - b) Eganing tagiga qanday chiziladi?

O`quvchilarni rag`batlantirish.

	<b>—</b>	Undalmaning har ikkala tomonidan(,) qo`yilasi	-ning	-dor	Fikr ning kim- ga qara- ta aytili -shi	Undal madan keyin( ,) qo`yil adi.	<b>—</b>	-la	-dosh
1									
2 a b									
3 a b									

## Tabiiy fan darslarida „Grafik test” metodi asosida topshiriq

- 1.Uning kurtaklari tuproq ostida rivojlanib, 10-15 kunda nihollar o’sib chiqadi.
- 2.a) Uning urug`i dalalarga kuzda sepiladi. 
- 2.b) Uning urug`i ichida bo`lib, u iyun oyi oxirlaridan boshlab hosil bera boshlaydi.
- 3.a) Uning erta navi iyun-iyul oylarida kovlab olinadi, avgust oylarida to`p guli pishib yetiladi, yer tagida oltin qoziq, u hammaga bo`lar oziq deyiladi. 
- 3.b)Qat-qat bargli bo`lib, ertagisi may oyida yetiladi, uzib olinmasa, uning o`rtasidan o`zagi chiqadi va gullab urug`laydi. 
- 4.Uning ertangisi may- iyun oylarida yetiladi va kovlab olinadi.Kechgisi esa oktabr-noyabr oylarida kovlab olinadi. 

						
1						
2						
3						
4						



## „Kodli jadval” metodi

Ushbu metoddan boshlang`ich sinflarda o`tiladigan barcha fanlarda foydalanish mumkin.Bu metod individual, kichik guruhlarda yoki juftlikda olib borilishi mumkin.Buning uchun raqamli jadval oldindan o`qituvchi tomonidan tayyorlanadi.Ona tili darsida quyidagicha foydalaniladi.Har bir raqam ostida so`z yoziladi.O`quvchilar o`qituvchining topshirig`iga qarab vazifani bajarishadi. Topshiriq: Jadvaldan shaxs va narsaning belgisini bildirgan so`zlarni toping.

O`quvchi shaxs va narsaning belgisini bildirgan so`zlar raqamlarini birin-ketinlik bilan teradi: 10,8,19,14,2.Endi kodni aniqlagan o`quvchi alifbo tartibida harflarni joylashtirib yashirin kodlangan so`zni topadi.Bu so`z „**KITOB**”

<b>10 chiroyli</b>	<b>20. dehqon</b>	<b>3. ishladi</b>	<b>7. bola</b>	<b>8. sariq</b>	<b>13. kuldi</b>	<b>4. olma</b>
<b>18. kitob</b>	<b>19. aqlli</b>	<b>14. toza</b>	<b>16. piyoda</b>	<b>21. daraxt</b>	<b>9. o`quvchi</b>	<b>11. ota</b>
<b>5. o`qidi</b>	<b>1. yig`ladi</b>	<b>2. katta</b>	<b>15. ikkinch</b>	<b>6. tikdi</b>	<b>12. bolta</b>	<b>17. besh</b>

Bu metod orqali o`qituvchi o`tilgan mavzu bilimini mustahkamlaydi, shu bilan birga o`quvchining xotirasi, matematik qobiliyati, hamda fanlararo integrttsiya asosida ona tili tilidan alifboni bilgan holda so`z hosil qilish ko`nikmasi hosil bo`ladi.

### **Matematika darslarida „Kodli jadval” metodidan foydalanish.**

Topshiriq: Jadvaldan qiymati yaxlit songa teng bo`lgan ifodalarni topib kodlang.

Bunda o`quvchi to`g`ri javoblarni topib kodni yozadi:

<b>1.D</b> <b>23+7</b>	<b>2.S</b> <b>25+3</b>	<b>3.O</b> <b>34+6</b>	<b>4.K</b> <b>87+3</b>	<b>5.H</b> <b>46+1</b>	<b>6.N</b> <b>15+55</b>
<b>7.T</b> <b>70+9</b>	<b>8.I</b> <b>48+2</b>	<b>9.E</b> <b>65+2</b>	<b>10.Sh</b> <b>37+3</b>	<b>11.L</b> <b>26+3</b>	<b>12.M</b> <b>49+1</b>
<b>13.X</b> <b>54+4</b>	<b>14.A</b> <b>76+4</b>	<b>15.N</b> <b>36+24</b>	<b>16.R</b> <b>44+3</b>	<b>17.Q</b> <b>58+1</b>	<b>18.D</b> <b>88+2</b>

1,3,6,8,10,12,14,15,18.Endi o`quvchi bu yerdagi kodni shifrlaydi, ya`ni shu raqamlardagi harflarni terib yashirin so`zni topadi.,„**DONISHMAND**”

### **Tabiiy fan darslarida „Kodli jadval” metodini qo`llash usuli.**

<b>11. Saturn</b>	<b>10. Neptun</b>	<b>8. Merkuriy</b>	<b>8. Mars</b>	<b>15. Oy</b>
<b>18. Venera</b>	<b>16. Yupiter</b>	<b>4. Quyosh</b>	<b>8. Uran</b>	<b>18. Yer</b>


Jadvalda berilgan sayyoralar nomini ularning Quyosh sistemasida joylashuviga qarab raqamlab chiqing.Hosil bo`lgan kodli raqamni alifbo tartibida o`qing va yashirin so`zni toping.Bunda o`quvchilar to`g`ri javobni topib kodni yozishadi:8,18,18,8,16,11,8,10.Endi o`quvchi bu yerdagi kodni shifrlaydi, ya`ni shu raqamlarni alifbo tartibida terib,yashirin so`zni topadi.,„**ISSIQLIK**”

## **„Xatoni top” metodi**

Bu metoddan darsning barcha bosqichlarida foydalanish mumkin.Ona tili darslarida matn, gap yoki she’riy to`rtliklarda berilgan xatoliklarni topish bo`yicha mashq berilsa, matematika darsida o`quvchi berilgan masala yechimidagi, yoki misolning amallar tartibidagi, javobidagi kamchilik xatolarini topishga intiladi,tasviriy san’at, texnologiya, o`qish savodxonligi darslarida rasmi li tarqatma materiallar asosida ishlatalidi.Bu metoddan jamoa bo`lib, juftlikda hamda individual ravishda foydalansa bo`ladi.

### **„Xatoni top” metodidan ona tili darslarida foydalanish.**

Masalan ona tili darsida „**Kishilar ism va familiyasining imlosi**” mavzusi o`tilgan bo`lsa, bu mavzuni mustahkamlashda o`quvchilarga matndan xatolarni toping deb topshiriq beriladi.O`quvchilar bu vazifani individual, yoki jamoaviy hamkorlikda guruhda bajarishlari mumkin.



Bu topshiriqn ni o`quvchilar mustaqil bajarganlaridan keyin, slayd orqali namunaviy xatolar ko`rsatiladi. O`quvchilar o`zлari topgan xatolar bilan solishtirishadi.Shu tariqa o`quvchilar xatolarni topishni o`rganishadi.O`qituvchi mavzu mazmuniga mos topshiriqlar tuzishi orqali o`quvchining ham o`tilgan mavzudagi bilimini tekshiradi, hamda xatolarsiz yozuv ko`nikmasiga ega bo`lishiga erishadi. Bu metod orqali men aksariyat oquvchilarimning xatosiz yozish, savodli yozish ko`nikma, malakalariga erishdim.

Topshiriq o`zgacha turda berilishi mumkin. Berilgan gap mazmuni to`g`ri tuzilganmi?

**Bajardim erta mashqlarini tongda turib badantarbiya men.**

**Men tongda erta turib, badantarbiya mashlarini bajardim.**

Kelishik qoshimchalari mavzusiga doir vazifa tuzish mumkin. Gaplar mazmunidagi xatolikni top.

**1.Salima onasidan yordam berdi. 2.Kitobni varaqlarini yirtish mumkin emas.3.Samarqandga Registon maydoni bor.**

Bu metodlar bilan ishlagan o`qituvchi o`quvchilardagi juda katta o`zgarishni ko`radi.O`quvchi savodli , grammatik, imloviy xatolarsiz yoza boshlaydi.Qayerda xatosi bo`lsa, uni tezda ziyraklik bilan topish, aytish, tuzatish, uning mas'uliyatiga aylanadi.O`quvchi o`zini o`qituvchi rolida sezadi.Bu esa uning xotirasida abadiy muhrlanadi va u qoidalarni o`rganadi.Shu bilan birga o`qituvchilik kasbiga mehr, ishtiyoqi oshadi.

### **Matematika darsida „Xatoni top” metodidan foydalanish**

Matematika darslarida ham bu metoddan samarali foydalansa bo`ladi.O`quvchi misol, masalalar, tenglamalarni tekshirar ekan bilimini boyitadi, mas'uliyatni sezadi, izlanuvchanlikni, sinchkovlikni, bilimga intilishni o`rganadi.

Masalan o`quvchilarga quyida berilgan tenglamalarning qiymatini tekshiring degan topshiriq beriladi.O`quvchi buning uchun tenglamaning yechilish tartibini bilishi kerakligini anglaydi.

#### **Tenglamalar to`g`ri yechilganmi? „Xatoni top”**

$$(X+123)-54=298 \quad \text{xatolik}$$

$$X+123=\underline{298}-54$$

$$X+123=244$$

$$X=244-123$$

$$X=121$$

$$(785-y)+23=125$$

$$785-y=125-23$$

$$785-y=\underline{102} \quad \text{xatolik}$$

$$y=\underline{785+102}$$



$$y=887$$

### **Texnologiya darslarida „Xatoni top” metodidan foydalanish**

Mashinani yasashda qaysi tasvirda xatoliklar berilgan? Nima uchun?

O`quvchilar o`z fikrlarini izohlaydilar.Ikkinchi tasvirdagi mashina detallari xato berilgan.Chunki mashina g`ildiragi aylana shaklida, derazalari esa, yarimoy.To`rtburchak va ko`pburchak shakllari to`g`ri kelmaydi.

Harakatlanuvchi qurilmalar  
yasash. Mexanika. Mexanik  
boshqaruvli qurilmalar



## Darslarda interaktiv ta’limiy o`yinlarni tashkil etish

„O`yinsiz to`la-to`kis aqliy rivojlanishni tasavvur etib bo`lmaydi.O`yin bu- yirik jo`shqin chashma.U orqali o`quvchining ma`naviy dunyosiga jonli tushunchalar,tasavvurlar oqimi quyiladi.O`yin harakatchanlik va izlanuvchanlik gulkanini yoquvchi uchqundir.

### B.A.Suxomlinskiy

Boshlang‘ich ta’limning fanlari o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqib tuziladi. Ushbu o‘quv dasturida 1-4-sinf o‘quvchilarida tayanch hamda fanga oid kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Shu sababli o‘quvchilarni darsda va darsdan tashqari mashg`ulotlarda qiziqtiruvchi o`yin metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Didaktik o`yinlar o`qitish, o`rgatish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, quvnoq tarzda olib boriladi. Bolalar g`olib bo`lish maqsadida jon- dili bilan o`yinga kirishib mashq qilishadi, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo`lgan qiziqish ortib boraveradi.

Didaktik o`yinlar bolaning his-tuyg`usiga ta’sir etib,unda o`qishga bo`lgan ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi.Bolalar o`yinda zo`r mammuniyat bilan ishtirok etadilar.O`yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o`quv kunining quvonchli manzarasi gavdalananadi.

Maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o‘qitishda g‘oyat samarali bo‘lgan qator o‘yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Mutaxassislarining fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko‘rinish: mehnat faoliyati, o‘yin faoliyati, o‘quv faoliyatida shakllanadi. Ularning barchasi o‘zaro bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Ta’kidlashlaricha, bolalarning maktabdagi o‘quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarini shakllanish qonuniyatları o‘yin faoliyatlarida tarkib topadi. Biroq o‘yinli ta’limni o‘quvchilar bilan ishlashdagi asosiy ta’lim shakli deyish to‘g‘ri emas. U o‘quvchida bilish qobiliyatini shakllantirmaydi, biroq ularning bilish faolligini oshiradi,qiziqish uyg`otadi. Qiziqish bor joyda esa ta’lim sifati yaxshilanadi.

Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo`llaniladi. Ushbu darslarda o‘quvchilarning bilim olish jarayoni o‘yin faoliyati o`rqali uyg`unlashtiriladi.Shu sababli o‘quvchilarning ta’lim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg`unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deb ataladi.

O`quvchi faoliyatida o‘yin orqali quyidagi **kompetensiyalar va 4 K moduli** amalga oshiriladi:

- o‘yin faoliyati orqali o`quvchining o`qishga, mehnatga bo`lgan qiziqishi ortadi;
- o‘yin davomida o`quvchining muloqotga kirishishi ya’ni **kommunikativ**--- muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beradi;
- o`quvchining o‘z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o`zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;

- hayotda va o`yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo`ljalni to`g`ri olish tahlil qilish,mantiqiy aloqalarni shakllantirish, mustaqil xulosa qila olish ko`nikmalarining tarkib topishiga tanqidiy --- **kritik** fikrlashga yordam beradi;
- o`yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish,tasavvur qila olish,qiziquvchanlik, o`z variantlarini ilgari surish ,yangi yechimlar va usullarni topish, ijodiy-**kreativ** fikrlashni shakllantirishga imkoniyat yaratadi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo`lgan qadriyatatlizimi, ayniqsa,ijtimoiy,ma`naviy-madaniymilliy va umuminsoniy qadriyatlarni o`rganishga e'tibor qaratiladi;
- o`yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot, hamkorlikda ishlash madaniyat--- **kolloboratsiya**(birgalikda ishlash) rivojlantirish ko`zda tutiladi;

### „Rasmlı rebus “didaktik o`yin


**O`yin maqsadi:** o`quvchilarning topqirlik, sezgirlik xususiyatlarini rivojlantirish. So`zlarni to`g`ri talaffuz qilib to`g`ri yozilishini o`rganib olish;

**Tarbiyaviy tomoni:** o`quvchilarni kitobxonlikka, shirinsuxanlikka da`vat etish;

**O`yin qoidasi:** Har bir rasmida berilgan predmetlar nomining bosh harflari terilib so`zlar hosil qilish kerak. So`ng bu so`zlarni qo`shib gap hosil qilinadi.



Rasmlardan foydalanib rebusni yeching.



**Til --- dil kaliti.**

## „Matn tuz” didaktik o`yin

**O`yin maqsadi:** o`quvchilarning gap tuzib , ulardan matn hosil qila olish ko`nikmalarini rivojlantirish.Og`zaki nutqlarini boyitish.

**Tarbiyaviy tomoni:** o`quvchilarni do`stlikka, umuminsoniy qadriyatlarni qadrlashga o`rgatish;

**O`yin qoidasi:** rasmlar o`rniga kerakli so`zlarni qo`yib gaplar hosil qilinadi.So`ng gaplar birlashtirilib matn tahskil etiladi.Har bir gap nechta so`zdan iborat ekanligi so`raladi.

### O`rmonda



Mana katta .



O`rmon , , lar makoni.

### Quyonvoy

Qalin o`rmonda bir mehmondo`st yashar ekan.Uning juda ko`p do`stlari bo`lgan ekan. Bir kuni u do`stlarini



taklif qildi. Dasturxonga , ni qo`yibdi.



Birinchi bo`lib keldi. , ga sov-



ga` qildi.So`ng , ga lar



sovg`a qildi.Yana mehmonga , uchib keldi. , do`s-



tiga , olib keldi. , do`stlaridan xursand bo`ldi.



## **„Qofiyadosh so`zlar top”ta’limiy o`yin**

**O`yin maqsadi:** o`quvchilarning lug`at boyligini oshirish;

**Tarbiyaviy tomoni:** har bir so`z ma’nosini anglash, uning mohiyatini tushunish, chiroyli nutq egasi bo`lish ruhida tarbiyalash;

**O`yin qoidasi:** o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan bir so`z beriladi. Bu so`zga qofiyadosh bo`lgan so`zlarni topish o`quvchilarga havola etiladi. O`quvchi ko`roq so`zning oxirgi bo`g`iniga qofiya bo`lgan shunday bo`g`inli so`zni topishga harakat qiladi.

Bu o`yin yangi mavzuni mustahkamlashda yoki o`quvchilarga ko`proq uygaga vazifa tariqasida berishga juda qulaydir.

Guruhlarda ish olib borilganda ham shunday topshiriq berilsa bo`ladi.

**Ziyrak**-terak,kerak,turshak,kurak, belkurak, xashak, yurak,zirak, darak, bilak, suyak, ohak, danak, bedarak, manak;

**Kamalak**-chelak,kapalak, sumalak, bilak, tilak, elak, malak, jingalak, palak, falak, ko`rshapalak, handalak.

**Bo`yoq**-sayoq,tayoq, qulqoq, qarmoq, boshoq, qo`noq, qochoq, qopqoq, taroq, dumaloq, buzoq, bo`taloq, chaqaloq, qaymoq, quroq, bo`yoq, qiynoq, chaqmoq, taloq, yiroq, chiroq, so`qmoq.

**Bahor**-anhor, nahor, bozor, mog`or, bisyor, bedor,xumor, ozor, bemor, me`mor, devor, qaror, viqor, hushyor, dor, alyor, chinor, tayyor,diydar.

**Sichqon**- qopqon, qon, jonon, hamyon, jahon, biyron, somon, o`pqon, quyon, sakson, million, to`fon, armug`on, o`g`lon, qur`on, chayon, talqon,giryon, Chimyon, ayon, nogahon,ziyon, jamadon, imtihon,topag`on, siyohdon, narvon, vagon, oson, qozon, karvon,ayron,polvon, yomon, sarson, jarayon,isyon, javlon, ehson.

Bu o`yin jarayonida o`quvchi izlanadi,fikrlaydi, so`z boyligini oshirishga harakat qiladi.

## „Osh pishiramiz“ ta’limiy o‘yin

**O‘yin maqsadi:** matematik o‘yin o‘quvchilarning yanada chuqurroq bilim olishlarida, ularning fikrlash qobiliyatlarini , qiziqishini, mantiqiy tafakkurini o`stirishga, topqirlilik, ziyrakliklarini rivojlantirishga yordam beradi;

**Tarbiyaviy ahamiyati:** o‘quvchilarga o‘yin orqali umuminsoniy qadriyatlarimiz , milliy urf-odatlarni e’zozlashga o‘rgatish,, mehmono`stlik, odoblilik fazilatlarini tarbiyalash;

**O‘yin qoidasi:** Bu o‘yinni kichik guruhsar bilan ishlashda darsni mustahkamlash qismida olib borilsa, bo`ladi.O‘quvchilarga o‘yinni boshlashdan oldin o‘zbek xonodonlarining azaliy urf-odatlari mehmono`stligi haqida suhbatlashib, mehmon kelganda milliy taomlarimizdan osh tortilishi haqida tushuncha beriladi.Shu sababli o‘yin qoidasi bo`yicha o‘quvchilar uylariga mehmon kelganligini faraz qilib osh damlashadi.Doskada osh masaliqlari bilan birga misollar yozilgan kartotekalar bo`ladi. Har bir guruhdan o‘quvchilar chiqib misollar javobini yechishadi.Qaysi guruh o‘quvchilari misollarni xatosiz yechsa, bu guruhning oshi mazali va sifatli chiqadi.

Misollarni o‘qituvchi mavzularga moslashtirib olishi mumkin.Har bir guruh ishi tekshiriladi va mazali oshi dasturxonga tortiladi. Oshlar maketi ham tayyorlab qo`yilishi lozim.Xatoga yo`l qo`yilsa ,osh tuzsiz yoki yog`i kam, guruch damini olmabdi deyilgan o‘qituvchi tomonidan jarimalar aytildi.Oshni sifatli pishirgan guruh o‘quvchilari g`olib hisoblanadi.



$2 \times 3 =$

$3 \times 4 =$

$5 \times 3 =$



$3 \times 3 =$

$4 \times 3 =$

$4 \times 4 =$



$5 \times 2 =$

$6 \times 2 =$

$7 \times 2 =$



$3 \times 4 =$

$5 \times 3 =$

$2 \times 9 =$



$2 \times 9 =$

$4 \times 6 =$

$3 \times 6 =$



$4 \times 7 =$

$3 \times 8 =$

$3 \times 9 =$



$4 \times 7 =$

$3 \times 10 =$


$4 \times 10 =$




### **„Ipak qurti“ metodi**

**O`yinning maqsadi:** o`quvchilarning fikrlash qobiliyatini o`stiradi, gap tuzish texnikasini rivojlantiradi, matematikada o`quvchining ketma-ketlikni kamaytirish, orttirish kabi tushunchalarni aniqlay olishga o`rgatadi.

O`yin asosida imlo qoidasini o`rganish, so`zlarining joyini to`g`ri topib, gap hosil qilish.




„Ipak qurti“ metodi asosida gap tuzish.



## Matematika darsida


„Ipak qurti” metodi asosida 1 dan 10 gacha bo`lgan sonlar ketma-ketligini tuzib berishi kerak bo`ladi.



„Ipak qurti” metodi Sonlarni o`sib borish tartibida joylashtiradi.




„Ipak qurti” metodi asosida 2 ko`paytirish jadvalining ketma-ketligini tuzing.




## „Mosini top” ta’limiy o`yin

O`yin maqsadi: o`quvchilarda aniq faktlar, qoidalarga asosan bilimlarga ega bo`lishni, xotirani mustahkamlash, charxlash kabi ijobiy, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.


### Ona tili darslarida „Mosini top”ta’limiy o`yini




### „MOSINI TOP”



### „Mosini top”



### „Mosini top“ ta’limiy o`yin.



## O`qish savodxonligi darslarida „Mosini top” ta’limiy o`yin

--- Men uzoq yurtlarga ketyapman.Har  
Biringizga bir juftdan tovuq, o`rdak,  
G`oz berib ketaman.

„Odam bo`lamан” she’ri

Oradan bir necha qish-u yoz o`tibdi.  
Shogird:,,Kulolchilikni miridan sirigacha  
Bilib oldim.endi yugurdak bo`lib yuraman-mi?  
-debdi-da, ustozidan javob so`rabdi.

„Non aziz” she’ri

Anvar Obidjon

Keksa kulol va shogird

Obid Rasul

Uch o`g`il (ertak)

## Matematika darslarida „Mosini top” ta’limiy o`yin


### „Mosini top”

$$\begin{array}{ccc}
 9 \text{ dm.kv} & \xrightarrow{\quad} & 605 \\
 547 \times 40 & \xrightarrow{\quad} & 68 \text{ soat} \\
 90 \text{ m.kv} & \xrightarrow{\quad} & 9 \text{ soat} \\
 3630 : 6 & \xrightarrow{\quad} & 21.880 \\
 540 \text{ min} & \xrightarrow{\quad} & 9000 \text{ dm.kv} \\
 2 \text{ sutka } 20 \text{ soat} & \xrightarrow{\quad} & 900 \text{ sm.kv} \\
 405 \times 30 & \xrightarrow{\quad} & 12\ 150
 \end{array}$$



## Tabiiy fan darslarida „Mosini top” ta’limiy o`yin

### „Mosini top”



Xulosa qilib aytganda, interfaol metod va o`yinlar bir vaqtida bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o`quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o`quvchilar orasida emotsional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o`quvchilarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish, hamda mavzularni tez va oson o'zlashtirishlariga imkoniyat yaratadi. Ta'lim sifat va samaradorligini oshirishga yordam beradi.



### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Turdiev N.SH., Asadov YU.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. //O‘quv-uslubiy qo‘llanma.(I-qism). Toshkent, 2015. - 160 b; B. 5-6 b.
2. Interfaol ta’lim metodlarining psixologik asoslari uslubiy qo‘llanma SamDU nashr-2015 A.Saidov
3. O’tkir Tolipov, Dilnoz Ro’ziyeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat-Toshkent “Innovatsiya-Ziyo”-2019-149 bet
4. [www.Ziyo.uz](http://www.Ziyo.uz)